Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320294

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TA'LIM XIZMATLAR BOZORI ISTIQBOLLARI

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
XAMRAQULOV AKROMJON ADAXAMJON O'G'LI

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish»[1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini, uning amaliy komponentlariga TQM (Total Quality Management) konsepsiyasi tamoyillarini qo'llashga oid ilmiy-uslubiy ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy xalqaro talablar darajasida sifatli mutaxassislar tayyorlash ularda ta'lim sifatini boshqarish tizimini qayta tashkil etish, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish borasida motivatsiyasini kuchaytirish, boshqaruvning strategik rejalashtirishga asoslangan yangi tamoyillarini hamda yalpi sifat boshqaruvi tizimini joriy etish vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Sifat tushunchasi yangi mazmun kashf etib, sifatga oid boshqaruv global xarakter kasb etib bormoqda.

Ushbu sharoitlarda sifat kategoriyasi evolyutsiyasi, uning invariantlik xususiyati, ko'p o'lchovli va ko'p aspektli mazmuni borasida ilmiy fikr-mulohazalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Sifat falsafiy kategoriya sifatida dastlab qadimgi grek faylasufi Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar) tomonidan talqin etilgan. Uning fikricha, sifat bu na faqat xaridor ko'z o'ngida paydo bo'ladigan, balki borliqda o'z-o'zidan mavjud narsalarni anglatadi. XIX asrda nemis faylasufi Gegel tomonidan sifatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sifat bu birinchi navbatda borliq bilan aynan bir xil ma'lumlikdir, shuning uchun nimadir o'z sifatini yo'qotsa, u o'z borlig'ini yo'qotadi» [1].

Boshqacha aytganda, obyekt faqat sifat tufayli o'z individual mazmuniga ega bo'lib, barqarorlik va ma'lumlilik kashf etadi. Shunday qilib, falsafa fanida «sifat» xususiyat kategoriyasi orqali ochib beriladi.

Ekspertlar fikrlari bo'yicha, ushbu yondashuvdan foydalanganda, sifatni aniqlashning bir muncha mos ta'rifi sifatning maqsad va tranformatsiyalari (talabaning o'zgarish jarayoni) sifatiga mosligini anglatadi.

Tadqiqotchilar Xarvey va Grinlar oliy ta'limda sifat tizimiga beshta yondashuvlarni ko'rib chiqishadi. Ular uchun sifat-bu «chiqish»da ijobiy natijalarga yo'naltirilgan maxsus jarayon; ta'lim jarayoni doirasida

Published: 05.06.2026

Cite this article: Xamraqulov Akromjon Adaxamjon o'g'li (2026). Ta'limni transformatsiyalash sharoitida ta'lim xizmatlar bozori istiqbollari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320294

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

takomillashtirish; maqsadlarning iste’molchilar talablari va kutishlariga mosligi; kapital qo‘yilmalar natijasi; talabalar yoki yangi bilimlarni rivojlantirish uchun taqdim etilayotgan imkoniyatlarning takomillashtirish borasidagi o‘zgarishlarga moslashishi. Ta’lim sifati avvalo, davlat ta’lim standartlarining bajarilish sifatiga, jamiyat va iste’molchilar tomonidan qo‘yilgan talablarga, OTM maqsadlari, me’yorlari, yaratilgan shart-sharoitlar, ta’lim jarayoni va yakuniy natijalar sifatiga bog‘liq. Ta’limda sifatni boshqarish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi [1]:

• ta’limga bo‘lgan talablarni ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda anglash;

• iste’molchiga mo‘ljal olish, mehnat bozoridagi keskin raqobat boshqarish tizimidan safarbarlik va dinamiklikni talab etadi;

• monitoring natijalarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini doimiy takomilashtirib borish.

Ta’lim sifati ta’lim jarayoni natijadorligi va ahvoli, uning jamiyat va davlat talablariga mosligini belgilovchi, shaxsning fuqarolik, maishiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy integral kategoriya sifatida talqin etiladi.

O’zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorida ishtirok etayotgan ta’lim muassasalarining marketing bo’limlari hamda marketing tadqiqotlarini o’tkazishga ixtisoslashgan marketing tadqiqotlariada statistik tahlilning ahamiyati juda kata. Marketigda strategiyalarni belgilashda statistik tahlilning umumlashtirish metodidan foydalaniladi. Strategiyalarni belgilashda o’rganilayotgan ob’yekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yahlit va aniq xulosaga kelish uchunu tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi. Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish kerak. Shu tufayli ushbu kategoriylar bir-biri bilan chambarchas bog’liqlikda qaraladi va marketing strategiyalarni belgilashda statistik usullardan bevosita foydalaniladi (1-jadval) [4].

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

1-jadval

Ta’lim xizmatlari bozori

BAKALAVRIAT (KUNDUZGI)	Kunduzgi kurslar				% o’zgarish	1-va 2-kurs farqi
	3-kur	2-kurs	1-kurs	jami		
1.Kompyuter injiniringi (Mult tex)	0	24	0	24	-100%	-24
2.Pedagogika	0	0	33	33	100%	33
3.Pedagogika va psixologiya	0	341	0	341	-100%	-341
4.Maktabgacha ta’lim	0	29	18	47	-38%	-11
5.Boshlang’ich ta’lim	0	221	118	339	-47%	-103
6.Matematika va informatika	0	46	25	71	-46%	-21
7.Tarix	0	98	34	132	-65%	-64
8.O’zbek tili va adabiyoti	0	140	99	239	-29%	-41
9.Xorijiy til va adabiyoti (Tillar bo'yicha)	0	222	123	345	-45%	-99
10.Iqtisodiyot (тarmoq va sohalar bo'yicha)	34	158	44	236	-72%	-114
11.Buxgalter hisobi va audit(тarmoq bo'yicha)	10	81	9	100	-89%	-72
12.Moliya va moliyaviy texnologiyalar	15	90	22	127	-76%	-68
13.Bank ishi va auditi	10	220	53	283	-76%	-167
14.Kompyuter injiniringi (Axborot xavf)	0	119	22	141	-82%	-97
15. Kompyuter injiniringi (“Комр injiniri”)	0	116	26	142	-78%	-90
JAMI	69	1905	626	2600	-67%	-1279

Manba. www.stat.uz

Yuqoridagi 1-jadvaldan yaqqol ko’rish mumkinki universitet ta’lim xizmatlari bozoriga yaqinda kirib kelishiga qaramay hozirgi kunda xususiy universitetlar yetakchiligi bo’yicha o’ziga munosib o’rin egallamoqda. Hozirgi kunda bu universitetda 15 ta yo’nalish bo’yicha jami talabalar soni 27131 tani tashkil qilmoqda. Lekin statistik tahlilar shuni ko’rsatmoqdaki, 1- yil 15 ta yo’nalish bo’yicha talabalar soni jami 69 tani tashkil qilgan bo’lsa, 2-yilga kelib bu ko’rsatkich 1905 tani tashkil qilib, 1836 nafar talabaga ko’paygan. Ammo 3-yilga kelib 1-bosqich kunduzgi bo’limga talaba bo’lganlar soni 626 tani tashkil qilib, bu ko’rsatkich 2-yilga nisbatan 1279 ta kam talaba jalb qilingan. Universitetda ochilgan 15 ta yo’nalish ichida talab yuqori bo’lgan yo’nalishlar uchligida 1-o’rinda jami 345 talaba bo’lgan ‘Xorijiy til va adabiyoti’ egallagan. 2- o’rinda esa jami 341 ta talabasi bo’lgan ‘Pedagogika va psixologiya’ yo’nalishi egallamoqda. 3- o’rinda esa jami 339 ta talabasi bo’lgan ‘Boshlang’ich ta’lim’ yo’nalishi egallamoqda.

Jamiyatning mavjud taraqqiyoti ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy mahoratlarini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, rahbarlarning kasbiy mahoratlari ta’lim muassasalarida ijtimoiy talablarga muvofiq xamqorlikdagi

faoliyatni tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Boshqarish har qanday jamiyatga, hayotning barcha sohalariga xos bo‘lib, asosiy maqsad fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini tobora to‘la qondirish uchun ishlab chiqarishni, barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Ta’lim sifatini boshqarish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha tavsiflarga ega. Masalan, bir guruh tadqiqotchilar ta’lim sifatini boshqarish tushunchasini ta’lim jarayoniga dixotomik, ya’ni ijobiy yoki salbiy tarzda ta’sir etuvchi boshqaruv faoliyati mahsuloti sifatida talqin etadilar. Boshqa bir tadqiqotlarda ushbu tushunchaga ta’lim jarayoni shartsharoitlari sifatini, uning amalga oshirilishi va natijalarini loyihalash, qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash deb ta’rif beriladi. Uchinchi guruh manbalarda ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayoni sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim natijalari orqali izohlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki raqamli marketingda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni kengaytirish mijozlar bilan 24/7 bolgan aloqani o’rnatishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va ularning ma’lumotlarini yig’ib ularni potensial mijozlarga aylantirishdan iborat. Chunki raqamli marketing yordamida kengroq auditoriyaga ega bo’lish mumkin, ma’lumotlarni qisqa vaqt mobaynida maqsadli auditoriyaga yetkazish mumkin, boshqa strategiyalarga qaraganda arzonroq reklama, mijozlarga ko’proq ta’sir o’tkazish mumkin va ta’sir samaradorligini analitik kuzatib borib ularni tahlil qilish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan marketing 5.0 konsepsiyasi ya’ni ‘Texnologiya va sun’iy intellekt’ni jadal rivojlantirish va uni oly ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirishdagi o’rnini kuchaytirish.

Ta’lim sifatini biz ta’lim jarayoni, oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar va natijalar sifati uchburchagi ko‘rinishida talqin etamiz. Yuqoridagilarni umumlashtirish jarayonida ta’kidlash mumkinki, «sifat» – bu murakkab falsafiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ayni paytda tizimli kategoriya bo‘lib, standartlashtirish bilan dialektik bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1.Y.Turganov, A.Qo‘shmurodov. Sifat, ta’lim sifati, ta’lim sifatini boshqarish tushunchalarining ilmiy-pedagogik talqini. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №4 (2)

2. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. ... diss. - T.: 2007. - 305 b.

3.Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T., 2015.

4. www.stat.uz